

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

Qarori

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI «SIFAT»
O'ZBEKISTON PAXTA TOLASINI SERTIFIKATLASH MARKAZI TO'G'RISIDAGI
NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2005 y., 19-20-son, 140-modda; 2010 y., 23-son, 183-modda)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Paxta chigiti resurslaridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2005 yil 31 martdagi 93-son qarorini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «Sifat» O'zbekiston paxta tolasini sertifikatlash markazi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Vazirlar Mahkamasining «Sifat» O'zbekiston paxta tolasini sertifikatlash markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida» 2004 yil 7 maydagi 220-son qarorining 2-bandi va ushbu qarorga 2-ilova o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.
3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Agrosanoat va suv xo'jaligi komplekslari masalalari axborot-tahlil departamentiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh Vaziri Sh. Mirziyoev.

Toshkent sh.,

2005 yil 10 may,

117-son

Vazirlar Mahkamasining

2005 yil 10 maydagi 117-son qaroriga

ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «Sifat» O'zbekiston paxta tolasini sertifikatlash markazi to'g'risida

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «Sifat» O'zbekiston paxta tolasini sertifikatlash markazi (keyingi o'rinlarda Markaz deb ataladi) O'zbekiston Respublikasida paxta tolasini va chigitini sertifikatlash va ularning sifatini nazorat qilish organi hisoblanadi.

Markaz o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

2. Markaz tizimiga Paxta chigitidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi, Paxta chigiti sifatini nazorat qilish markaziy laboratoriyasi, Tekshirish va nazorat qilish markaziy laboratoriyasi, mintaqaviy sinov laboratoriyalari hamda paxta tozalash korxonalarini huzuridagi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan urug'chilik laboratoriyalari kiradi.

3. Markaz o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek mazkur Nizomga amal qiladi.

4. Markaz o'z faoliyatini davlat boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Markazni va uning mintaqaviy bo'linmalarini moddiy-texnik ta'minlash, Markaz tizimi xodimlari mehnatiga haq to'lash paxta tolasini va chigitini sertifikatlash ishlarini bajarishdan tushadigan mablag'lar, shuningdek amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa manbalar hisobiga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan xarajatlar smetasiga muvofiq amalga oshiriladi.

6. Markaz yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'ladi.

II. Markazning vazifalari va funktsiyalari

7. Quyidagilar markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) belgilangan standartlar, metodikalar, qoidalar, kontraktlar, shartnomalarga hamda respublika hududida va uning tashqarisida paxta tolasini ishlab chiqarish va saqlash joylarida uning sifatiga qo'yiladigan talablarni nazarda tutuvchi boshqa bitimlarga muvofiq paxta tolasini sertifikatlash va uning sifatini nazorat qilish;

b) respublika paxta tozalash zavodlarida paxta tolasini turkumlari massasini nazorat qilish;

v) jahon bozori va ichki bozor talablariga muvofiq paxta tolasini sertifikatlash va uning sifatini nazorat qilish tizimini rivojlantirish va ta'minlash bo'yicha amaliy va ilmiy faoliyatni amalga oshirish;

g) paxta tozalash sanoati korxonalarini, paxta tolasini, momig'i va chigiti xaridorlarini va boshqa tashkilotlarni sertifikatlanadigan mahsulotning standart namunalari bilan ta'minlash;

d) manfaatdor tashkilotlar va idoralar bilan birgalikda g'ozalarni tolaning yopishqoqligi jihatidan aprotatsiya qilishda, shuningdek yuqori tashkilotlar tomonidan ruxsat berilgan paxta

tozalash zavodlari tayyorlov punktlarida qabul qilib olishda paxta xom ashyosi sifatini nazorat tekshiruvidan o'tkazishda qatnashish;

e) O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliya tashkilotlari bilan tuzilgan bitimlariga muvofiq loyihalarni amalga oshirishda qatnashish;

j) paxta mahsulotini sertifikatlash, tasniflash, sinash usullari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash;

z) paxta chigiti ishlab chiqarishni, uning miqdorini, sifatini, undan maqsadli foydalanishni, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, paxta tozalash, yog'-moy korxonalarida paxta chigitini hamda uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarni sifatli saqlashning ta'minlanishini, tashish vaqtida nobud bo'lishini qisqartirishni, shuningdek qishloq xo'jaligi korxonalarida urug'lik chigitdan foydalanishni nazorat qilish;

i) paxta chigitiga va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarga normativ-texnik hujjatlar talablariga, shuningdek qabul qilib olish, yuklab jo'natish, saqlash, qayta ishlash va eksport-import operatsiyalarida ularning sifatini sinash metodlariga rioya etilishini muntazam ravishda nazorat qilish;

k) paxta tozalash korxonalarida ishlab chiqarilayotgan texnik chigitning har qaysi turkumini muvofiqlik sertifikati bergan holda sinashni amalga oshirish;

l) paxta tozalash va yog'-moy sanoati korxonalariga paxta chigitini saqlash, tozalash, quritish, unga ishlov berish bo'yicha, shuningdek paxta tozalash korxonalarida normativ-texnik hujjatlarni va ilg'or texnologiyalarni belgilangan tartibda joriy etish, texnik chigitni topshirish-qabul qilib olish mexanizmini takomillashtirish masalalarida metodik yordam ko'rsatish.

8. Markaz o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

a) paxta tolasi, chigitiga va uni qayta ishlashdan olinadigan boshqa mahsulotlarga davlat standartlarini ishlab chiqishda qatnashadi;

b) sertifikatlash tartibini belgilovchi normativ-texnik, tashkiliy-metodik hujjatlarni ishlab chiqadi va yangilab boradi;

v) sertifikatlash uchun buyurtmalar qabul qiladi va paxta tolasi va chigiti sifatini nazorat qiladi;

g) paxta tolasi va chigiti tashqi ko'rinishining standart namunalarni tayyorlaydi;

d) paxta tolasi va chigiti sifatini aniqlash metodlarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi hamda zarurat bo'lganda manfaatdor tashkilotlar va idoralar bilan birgalikda ularni takomillashtirish yuzasidan tegishli ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiradi;

e) paxta mahsulotlarini sertifikatlash, tasniflash va sinash usullari bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydi, o'qitishning shakl va usullarini takomillashtirish tadbirlarini ishlab chiqadi;

j) paxta mahsulotini sertifikatlash sohasida respublikada va uning tashqarisida paxta tolasi va chigitini ishlab chiqaruvchilar, tashqi savdo tashkilotlari va paxta mahsulotlari iste'molchilari bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

- z) paxta chigiti va uni qayta ishlashdan olingan mahsulotlarning sifati, saqlanishi, ulardan oqilona foydalanilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;
- i) respublika hududida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida paydo bo'ladigan nizoli holatlarda, shuningdek eksport-import operatsiyalarida o'z vakolatlari doirasida paxta chigitining sifati bo'yicha sinovlar o'tkazadi hamda jismoniy va yuridik shaxslar uchun xulosalar beradi;
- k) paxta chigiti va uni qayta ishlashdan olingan mahsulotlarning balanslarini tuzishda qatnashadi, xarid qilish, shu jumladan import bo'yicha xarid qilish mo'ljallanayotgan xom ashyoning sifati bo'yicha, shuningdek uni eksport qilishda takliflar kiritadi;
- l) texnologik jarayonlar bilan tartibga solingan paxta chigiti va uni qayta ishlashdan olingan mahsulotlardan foydalanish bilan bog'liq sifat, saqlash, oqilona foydalanish, hisobini yuritish masalalari bo'yicha normativ-texnik hujjatlarni belgilangan tartibda ishlab chiqish, tasdiqlash va manfaatdor idoralar bilan kelishishda, shu jumladan ishlab chiqarish, transportda tashish va saqlashda ularning chiqishini, tabiiy kamayish normalarini aniqlashda qatnashadi;
- m) paxta chigiti va uni qayta ishlashdan olingan mahsulotlarning sifatini oshirish va ulardan oqilona foydalanish davlat dasturlarini tayyorlashda ishtirok etadi;
- n) paxta chigiti sifatining yomonlashishi, kamomadi holatlari va sabablarini aniqlaydi, zarurat bo'lganda ularni bartaraf etishga doir ko'rsatmalar beradi hamda paxta chigiti va uni qayta ishlashdan olingan mahsulotlar resurslarining saqlanishi va ulardan foydalanish ishlarining ahvoli to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga axborot beradi;
- o) tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradi.

9. Markaz o'ziga yuklangan vazifalarni bevosita va mintaqaviy sinov bo'linmalari orqali hal qiladi.

III. Markazning huquqlari va javobgarligi

10. Markaz o'ziga yuklangan vazifalar va funktsiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

- a) respublikadagi ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar uchun majburiy bo'lgan paxta tolasi va chigitining milliy standartlarga muvofiqlik sertifikatini belgilangan tartibda berish;
- b) paxta tolasi va chigitini eksportga yetkazib berish jarayonida uning sifatiga baho berilayotganda, sifat masalalari ko'rib chiqilayotganda xorijiy va xalqaro tashkilotlarda respublika manfaatlarini ifodalash;
- v) paxta chigiti va uni qayta ishlashdan olingan mahsulotlar resurslarini ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotish korxonalarini va tashkilotlarini belgilangan tartibda tekshirish;
- g) korxonalar va tashkilotlarning tekshirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha hujjatlari bilan tanishish;

- d) korxonalarda paxta chigiti va uni qayta ishlashdan olingan mahsulotlarning namunalarini belgilangan tartibda olish, tekshirib ko'rish uchun ularning laboratoriyalaridan foydalanish va zarurat bo'lganda tekshirish bilan bog'liq ishlarni bajarish uchun korxonalar mutaxassislarini jalb etish, zarurat bo'lganda paxta chigiti va uni qayta ishlashdan olingan mahsulotlar namunalarini qo'shimcha ravishda tekshirish uchun tegishli laboratoriyalarga jo'natish;
- e) zarurat bo'lganda avtomobil va temir yo'l transportidan tushirilayotgan va ularga yuklanayotgan paxta chigiti va uni qayta ishlashdan olingan mahsulotlar turkumlarini paxta tozalash va yog'-moy korxonalar bilan birgalikda nazorat qilish tartibida og'irligini tortib ko'rish;
- j) paxta chigiti va mahsulotlar qoldig'i to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchiligi asosli ravishda shubha tug'dirgan taqdirda paxta chigiti va uni qayta ishlashdan olingan mahsulotlar resurslari qoldiqlarini qayta tortib ko'rgan yoki standart massaga o'ralgan mahsulotni qayta sanab chiqqan holda navbatdan tashqari xatlov o'tkazilishini tayinlash;
- z) paxta chigiti va uni qayta ishlashdan olingan mahsulotlarning saqlash uchun yaroqsiz idishlarda saqlanishini taqiqlash, texnologiya va sanitariya rejimlari qo'pol ravishda buzilganligi aniqlangan taqdirda ayrim ishlab chiqarishlar, tsexlar va korxonalar ishini ushbu qoida buzishlar bartaraf etilgunga qadar to'xtatib qo'yish, shuningdek normativ va texnik hujjatlar talablariga javob bermaydigan paxta chigiti va uni qayta ishlashdan olingan mahsulotlarni muayyan maqsadda sotishni taqiqlash;
- i) xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga, birlashmalarga va boshqa tovar ishlab chiqaruvchilarga paxta chigiti va uni qayta ishlashdan olingan mahsulotlarning sifatini baholash bo'yicha shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatish, shuningdek o'z vakolatlari doirasida boshqa xizmat turlarini ko'rsatish;
- k) mehnatga haq to'lash, uni tashkil etish va normalash shakllari va tizimini belgilash;
- l) bank va tijorat kreditlaridan foydalanish;
- m) respublikada va chet ellarda o'z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan bitishuvlarni va boshqa yuridik hujjatlarni tuzish va ishlarni ro'yobga chiqarish;
- n) o'z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan binolar qurish, sotib olish, o'zgaga berish, ijaraga olish, kiraga olish va berish;
- o) respublikada va chet ellarda mustaqil ravishda yoki mamlakatimizdagi yoki xorijiy sheriklar bilan pay asosida filiallar, bo'limlar, vakolatxonalar va shu kabilarni ta'sis etish;
- p) korxonalar va tashkilotlarga, ularning ishlab chiqarish binolariga, omborlariga kirish hamda sinash, sertifikatlash yoki sifatning standartlarga va boshqa normativ-texnik hujjatlar talablariga muvofiqligini nazorat (inspektsiya) qilish uchun tegishli paxta mahsuloti namunalarini tanlab olish;
- r) korxonalar va tashkilotlardan xom ashyo, paxta tolasi va chigiti sifati masalalari bo'yicha ma'lumotlarni belgilangan tartibda olish;

- s) paxta mahsulotini standartlash va sertifikatlash masalalarini hal etish uchun mutaxassislarni jalb qilish;
- t) paxta tolasi va chigiti sifatini tekshirish natijalari bo'yicha hujjatlar tuzish hamda tegishli korxonalar va tashkilotlar rahbarlariga amaldagi standartlar buzilishining aniqlangan hollarini bartaraf etish yuzasidan takliflar berish;
- u) respublikada va chet elda «nou-xau» hamda paxta mahsulotini standartlash, sertifikatlash va sifatini nazorat qilish bo'yicha boshqa ilmiy yutuqlarni belgilangan tartibda sotib olish va sotish.

11. Markaz o'ziga yuklangan vazifalarning samarali bajarilishi uchun javob beradi.

IV. Markaz faoliyatini tashkil etish

Oldingi tahrirga qarang.

12. Markazga belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan bosh direktor boshchilik qiladi.

(12-bandning birinchi xatboshi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 5 iyundagi 108-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2010 y., 23-son, 183-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Bosh direktor maqomiga ko'ra vazirning birinchi o'rinbosariga tenglashtiriladi, uning belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan, maqomi bo'yicha vazir o'rinbosarlariga tenglashtiriladigan ikki nafar o'rinbosarlari, shu jumladan bir nafar birinchi o'rinbosari bo'ladi;

(12-bandning ikkinchi xatboshi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 5 iyundagi 108-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2010 y., 23-son, 183-modda)

Inspeksiya boshlig'i ayni vaqtda «Sifat» O'zbekiston paxta tolasini sertifikatlash markazi bosh direktorining o'rinbosari hisoblanadi.

13. Bosh direktor:

Markaz faoliyatiga yakka boshchilik asosida umumiy rahbarlik qiladi;

Markaz vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi hamda Markazga yuklangan vazifalar va funktsiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

o'z o'rinbosarlari vakolatlarini belgilaydi, ular o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, Markaz tizimining boshqa mansabdor shaxslari vakolatlarini, Markaz faoliyatining alohida uchastkalariga rahbarlik qilish yuzasidan o'z o'rinbosarlari va boshqa mansabdor shaxslarning javobgarligi darajasini belgilaydi;

Markaz tizimi xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

zarurat bo'lganda xodimlarning belgilangan umumiy soni doirasida Markaz markaziy apparati tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritadi, uning shtat jadvalini, shuningdek Markazning markaziy apparati va uning mintaqaviy sinov laboratoriyalarining xarajatlar smetasini tasdiqlaydi;

Markazning markaziy apparati va uning bo'linmalari xodimlarini belgilangan tartibda lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi.

Bosh direktor qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Oldingi tahrirga qarang.

14. Markazda bosh direktor (hay'at raisi), uning o'rinbosarlari (lavozimiga ko'ra), shuningdek Markaz faoliyatining asosiy yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda hay'at tashkil etiladi.

Hay'atning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi bosh direktorning taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Hay'at quyidagilar bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi:

Markaz faoliyatining belgilangan standartlar, metodikalar, qoidalar, kontraktlar, shartnomalarga hamda respublika hududida va uning tashqarisida paxta tolasini ishlab chiqarish va saqlash joylarida uning sifatiga qo'yiladigan talablarni nazarda tutuvchi boshqa bitimlarga muvofiq paxta tolasini bundan buyon sertifikatlash va uning sifatini nazorat qilish, respublika paxta tozalash zavodlarida paxta tolasini turkumlari massasini nazorat qilishni ta'minlash, shuningdek jahon bozori va ichki bozor talablariga muvofiq paxta tolasini sertifikatlash va uning sifatini nazorat qilish tizimini rivojlantirish va ta'minlash bo'yicha amaliy va ilmiy faoliyatni amalga oshirish bo'yicha ushbu Nizomda belgilangan asosiy yo'nalishlarini tayyorlash va amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «Sifat» O'zbekiston paxta tolasini sertifikatlash markazi nomenklaturasiga kiradigan lavozimlarga kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, tayyorlash va qayta tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ijro intizomini mustahkamlash, ularning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun Markaz rahbarlari va xodimlarining shaxsiy javobgarligini oshirish.

Hay'at Markazning vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ham ko'rib chiqish huquqiga ega.

Hay'at majlisiga Markaz vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlari taklif etilishi mumkin.

Hay'at uning majlisida tarkibining yarmidan ko'pi qatnashgan taqdirda vakolatli bo'ladi. Ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Hay'at qarorlari bosh direktorning buyruqlari bilan amalga oshiriladi. Bosh direktor va hay'at a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lgan taqdirda bosh direktor paydo bo'lgan kelishmovchiliklar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga axborot bergan holda mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Hay'at a'zolari ham o'z fikr-mulohazalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xabar qilishlari mumkin.

Hay'at faoliyati tartibi uning hay'at tasdiqlaydigan reglamentida belgilanadi.

(14-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 5 iyundagi 108-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2010 y., 23-son, 183-modda)

15. Markazni tugatish yoki qayta tashkil etish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.